



## MA'NAVIY TARBIYA VA SHAXSNI OILA MUHITIDA SHAKLLANTIRISHNING GENDER TARBIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH

Usmanova Nargiza Xasanovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup> JDPI Pedagogika nazariyasi va Fakulteti 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5903349>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 13-Yanvar 2022  
Ma'qullandi: 18- Yanvar 2022  
Chop etildi: 23- Yanvar 2022

### KALIT SO'ZLAR

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'rida" Qonuni, "yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik", gender tengligi,

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oilada ma'naviy tarbiya va oila muhitida shaxsni shakllantirishning Gender tarbiyasi asosida tashkil etilishi mavzusida bir qancha tavsiyalar keltirilgan bo'lib, bu soha har doim dolzarb bo'lib kelgan muammo hisoblanadi.

**"Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqe'ini yanada mustahkamlash- islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir."**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev**

Dunyo tamadduniga sabab bo'lgan eng katta omil bu-insondir. Insonni tarbiyalash barcha davrlarda eng muhim hayotiy hodisa bo'lib hisoblanib kelingan. Tarbiya jarayonida uslublar va vositalar o'zgarsa ham mohiyat also o'zgarmaydi. Dunyo sivilizatsiyasining beshigi hisoblangan sharqda bu masala ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bu boradagi ishlar eng avvalo oiladan boshlanadi. Shu

maqsadda bugungi kunda ham qabul qilinayotgan har qanday davlat hujjalarida o'z askini topgan.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-maddasida "Ota-onalar farzand tarbiyasi uchun javobgardir" deb belgilab qo'yilgan.Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash va oila muhitini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni



takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'roisida"gi PF-5325 Farmoni(02.02.2018), Q-3808 O.zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (07.06.2018), O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish davlat va jamiyatning asosiy maqsadlaridan biriga aylandi.

Jamiyat oilalar tizimidan tashkil topgan ekan demak, tarbiyani avvalo oila ostonasidan boshlash kerak. Caqaloq bu yorug' dunyoga kelar ekan dastlab onasining tafti, mehrini o'ziga xos ravishda izlay boshlaydi. Buni uning tamshanib ona ko'kragini izlashidan ham bilish mumkin. Xuddi mana shu daqiqadan bola onaning erkalovchi ovoz ohanglarini eshitib, uni his

qila boshlaydi. Har bir oilada ota-ona tarbiyalash jarayonida aniq maqsad qo'yib, o'z ustida tinimsiz ishlashi, izlanishi, harakatlari natijasini baholay olishi lozim. Oilada ota-onaning vazifalari to'g'risida buyuk mutaffakkir Abu Ali ibn Sino o'zining "Hay ibn Yaqzon" va "Tadbir al-manozil" asarlarida shunday fikrlarni keltirib o'tgan. Bolaga hali u tug'ulmasdan turib g'amxo'rlik qilish, go'daklik davridan boshlab tarbiyani boshlash zarurligini ta'kidlaydi. "hay ibn Yaqzon" asarining nomi ham aytib (Uyg'oq o'g'li Tirik) turibdiki, oilada bolaning did-farosatini o'stirish, fikr doirasini kengaytirish, axloqiy va ma'naviy tarbiyaga jiddiy kirishish lozimligini o'qtiradi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd eter ekan, ta'limda rioya qilinishi lozim bo'lgan bir qator qoidalarni keltirib o'tadi:

:

## Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaga oid qoidalari

yengildan og'irga borish orqali ta'lim berish

birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik

qiziqishlarni e'tiborga olib, jismoniy mashqlar bilan birga oilb borish

jamo'a bo'lib maktabda o'qitishga harakat qilish

ta'lim bola yoshiga mos bo'lishi

Mazkur talablar bugungi kun uchun ham nihoyatda muhim bo'lib, bundan ming yil avval aytib o'tilgan ekan, demak sharq bejizga dunyo sivilizatsiyasining beshiga deyilmas ekan. Ko'hna sharqning buyuk darg'alaridan yana biri bo'lmish Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida bola tarbiyasi, shaxsning kamolotiga oid

o'g'itlarni kelajak avlodlar uchun qoldirib ketgan. Jumladan mazkur asarda shunday pand nasihatlar keltirilgan: -"Ey farzand, yaxshilik qil va qilg'on yaxlikdan hargiz pushaymon bo'lmagil. Bir kishiga bir yaxshilik qilsang, ko'rgilki, yaxshilik qilg'on vaqtda u kishiga naqadar rohat yetg'on bo'lsa, sening ko'nglingga ham



undan ziyodroq shodlik va xurramlik yetishur". Demak inson eng avvalo yaxshilik qilishi, yaqinlari va o'zgalarga yomonlik sog'inmasligi, hasad ko'zi bilan qaramasligi lozim ekan. Kaykovus oilada otalarning o'z farzandlariga nisbatan qattiqqo'l bo'lishini talab etadi. Lekin bolalarni jazolashni otaning o'zi emas, murabbiy tomonidan bajarilishini istaydi. Chunki otani o'z qo'li bilan farzandini jazolashi unda adovat hissini uyg'otadi, lekin otadan farzand hayiqib turishi kerak, agar u hayiqmasa ota-onani xor qiladi, deb ta'lim beradi. XV asrda Eron, Xuroson va Movaunnahrda ijtimoy-ma'rifiy fikr taraqqiyotiga o'lgan hissa qo'shgan buyuk mutaffakkir Jaloliddin Davoniydir. Davoniy dunyoqarashning mag'zini komil insonni tarbiyalash uchun yuksak insoniy fazilatlarni tarkib toptirishda ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha bola yaxshi fazilatlarni ta'lim-tarbiya natijasida egallashi mumkin. Chunki, bolada his-tuyg'u juda erta shakllana boshlaydi, u ulg'aya brogan sari ayrim juz'iy narsalarni ham ajrata boshlaydi, tana a'zolari mustahkamlanadi, narsa va hodisalarni bir-biridan ajrata boshlaydi, yaxshilik va yomonlik to'g'risida tasavvurga ega bo'la boshlaydi, aqli to'lishib, ongi o'sadi deb hisoblaydi olim.


Mana shunday fikr taraqqiyotiga o'lgan hissa qo'shgan allomalarimizdan Mir Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abu Nasr Farobiy asarlari orqali bugungi yosh avlodga ta'lim-tarbiya bersak, oila muhitida ham kitobxonlikka e'tibor bersak, globallashuv va ommaviy madaniyat ta'siridan bolalarimizda immunetet hosil qilish mumkiun.

Jamiyatning muhim ijtimoiy instituti bo'lgan oilalarning to'liq va bexato faoliyat olib borishi uchun uning a'zolari

birgalikda yashash ko'nikmalarini to'g'ri egallashi lozim bo'ladi. Oilada har bir farzand hoh u o'gil bo'lsa hoh u qizbola bo'lsin oz o'rniga ega, har biri ota-onaning jon rishtasi hayotining mazmunidir. Ularni to'g'ri tarbiyalashda alohida, o'ziga xos ravishda, nihoyatda e'tibor bilan yondashish lozim. Azaldan otabobolarimiz o'gil bolalarni tarbiyalashda ularning mard, olijanob, g'amxo'r, jismonan baquvvat qilib tarbiyalashga katta e'tibor berishgan. Shu maqsadda ularga ot minish san'ati, kamonbozlik, kurash bilan bir qatorda bilim olishlari uchun sharoit yaratilgan. Qiz bolalar uchun esa muloyimlik, did-farosat, nafis san'at, pokizalik, ozodalik, pazandachilik, farzand parvarishi kabi ko'nikma va malakalar xos bo'lgan. Qadimdan qiz bolalar ham o'gil bolalar kabi maktablarga borishgan, bilim olishlari, san'at va she'riyat bilan shug'ullasishlari mumkin bo'lgan. Bugungi kunda ham bu xislatlar o'z ahamiyatini yanada mustahkamlab bormoqda. Oila institutini mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilish doimo mustaqil davlatimizning bosh ustuvor maqsadi bo'lib kelmoqda. Ayollarni ham erkaklar bilan teng huquqli mehnat sharoitlarida ishlashlari, qonuniy va siyosiy huquqlarda ham tengligi bir qancha qonunlar bilan mustahkamlab qo'yilgan. Mana shunday qonunlardan biri O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunidir. Bu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan bo'lib, Senat tomonidan esa 2019-yil 23-avgustda ma'qullangan. Qo'yida ushbu qonunning ayrim moddalarini keltirib o'tamiz:




### O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni



O'zbekiston dunyoning TOP-50 mamlakatlariga kirdi. Yangi O'zbekistonning bugungi zamonaviy parlamentida ayollar Qonunchilik palatasi deputatlari safida-32% va Senat a'zolari tarkibida-25% ni tashkil etmoqda. Mana shunday har sohada yetuk bo'lgan xotin-qizlar oilada kamol topar ekan, qizlarimizga tarbiyani bolalikdanoq to'g'ri berish bosh maqsadimizga aylandi. Zamonaviy oila muhitida ota-ona teng ravishda bolalar tarbiyasini olib borishlari, atrof-muhitning nojo'ya ta'sirlaridan farzandlarini himoya qila

olishlari lozim. Eng yaxshi himoya esa, azalman ma'lumki, bu- shaxsni ham ma'nan, ham jismonan komil qilib tarbiyalashdir. Bugungi kunning to'xtovsiz saralanmagan axborot oqimi ta'siridan bolani himoya qilish, o'z atrofida ro'y berayotgan voqe'a-hodisalarni to'g'ri baholay olish qobiliyatini shakllantirish oilada shakllanadi. Shunday ekan, ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak ekan. Bugungi kunda shartli ravishda bir necha oila turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

#### Zamonaviy oila turlari



Avtoritar oilalarda ota-onalar bolalardan so'zsiz itoatni talab qiladilar va bunga erishadilar ham. Bolaga

qo'yilayotgan ta'qiqlar sababibini hatto tushuntirishga urinmaydilar ham. Ular farzandlarini har sohada qattiq nazorat



ostida ushlab turishadi. Lekin bunday usullar bilan bolani tarbiyalasalar bola odamovi, tortinchoq, mustaqil fikrga ega bo'lishmaydi. Ko'pincha bunday oila farzandlari yolg'izlanib qolishadi, o'z ichki kechinmalarini, fikrlarini ota-onasiga botinib ayta olmaydilar. Qarorlar qabul qilishda mustaqil bo'lishmaydi, albatta ota-onaning roziligini so'rashadi. Favqulodda vaziyatlarga tayyor bo'lishmaydi.

O'ta talabchan ota-onalar ham avtoritar bo'lib, farzandlariga juda yuqori talablar qo'yishadi. Ulardan birinchilikni talab qilishadi, qiziqishi va iste'dodini hisobga olmasdan ular uchun qarorlar qabul qilishadi. Bola ularning talablarini oqlay olmasa ularni koyib, yanada talab va istaklarini kuchaytirishadi. Bunday oila farzandlari ham nihoyatda sovuq va rad qiluvchi munosabatlar orqali yolg'izlanib, jamoa bilan munosabatga kirishishda qiynaladi.

Haddan tashqari himoya, bolaga haddan tashqari g'amxo'rlik qilish, uning butun hayotini o'ta darajada nazorat qilish bolaning passivligiga, mustaqil qarorlar qabul qilishiga bir muncha to'siqlar qo'yadi.

Demokratik oilalarda esa ota-onalar farzandiga tehg munosabatda bo'lib, ularning fikrlarini qadrlaydi, mustaqillikni va shu bilan birga intizomni ham talab qilishadi. Bolaga o'qishda va hayotning ayrim jabhalarida mustaqil bo'lishga yo'l qo'yadilar. Uning erkinligiga daxl qilmasdan turib, hamma vazifalarni bajarishni va talab nega qo'yilayotganini erinmasdan bolaga tushuntiradilar. Bola

ham ota-onadagi bunday munosabatni yaxshi o'zlashtirib, tengdoshlari bilan munosabatga oson kirishadi, Maktabda ham, do'stlari davrasida ham o'z o'rniga ega bo'ladilar. Fikrini erkin bayon qilib, mustaqil va to'g'ri qarorlar qabul qila oladi.

Befarq munosabatlar esa bolaga to'liq erkinlik berib, uni nazorat qilmaslik oqibatida kelib chiqadi. Ota-ona o'ta zamonaviylikni niqob qilib, farzandini har sohada erkinlikka qo'yib berishadi. To'g'ri qarorlar qabul qilishni, atrof-muhit va do'stlari bilan to'g'ri munosabat o'rnatishni tushuntirmaydilar. Bunday bolalar ko'pincha tarbiyasi noto'g'ri shakllanib, tengdoshlari va do'stlariga qo'pol munosabatda bo'lib, ota-ona baribir uni tartibga chaqirmasligini anglab turadi. Bunday bolalar bilan hattoki, o'qituvchilar ham ishlashda bir muncha qiyinchiliklarga duch kelashadi. Ularni boshqarish qiyin, dars mobaynida o'rtoqlarini ham fikrlarini chalg'itishga harakat qilashadi. O'qituvchi qobiliyatli va mahoratli bo'lsa bunday vaziyatlardan chiqa oladi.

Bolaning ma'naviy-axloqiy, ruhiy, jismoniy kamolotida oilaning o'rne beqiyosdir. Chunki bolaning ilk ta'ssurotlari, his-tuyg'ulari, atrof-muhitga munosabati oilada shakllanadi. Ma'naviyatli, dunyoqarashi keng ota-onalat farzandining har bir harakatini kuzatib, uni ichki, yashirin qobiliyatlarini aniqlab, rivojlantira olishi, to'g'ri yo'nalish berishi juda muhimdir. Shularni e'tiborga olgan holda bir necha tavsiyalarni keltirish mumkin



## Bola tarbiyasida e'tibor berish lozim bo'lgan tavsiyalar .

- Bola bilan samimiy munosabat o'rnatish**
  - Munosabatlarga ehtiyotkorona yondashuv
- Bolaning har bir harakatini kuzatish**
  - Maktab va do'stlari i davrasida harakatiga e'tibordi bo'llish
- Boalning iste'ddodini aniqlay olish**
  - Qiziqishlarini hurmat qilish
  - Bola fikrlarini diqqat bilan

- Bolaning kitobxonlikka bo'lgan mehrini oshirish**
  - Oilada kitob mutolaasini yo'lga qo'yish
  - O'zi tanlagan kitoblarni o'qishga imkon berish
- Oilada jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish**
  - o'zi qiziqqan sport to'garagiga a'zo bo'lishi
- Muammoli vaziyatlardan chiqib ketish**
  - Har qanday vaziyatda bosiq va mulohazakor bo'lish
  - Bola fikrini hurmat qilish

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday zamonda ham inson kamoloti, rivoji, ma'naviy-ahloqiy, jismoniy yetuligini tarbiyalash eng birinchi vazifa bo'lib kelgan. Inson esa albatta, oilada kamol topadi, o'zligini anglaydi. Nasl-

nasabini, kimligini, hayotda o'z o'rnini e'tirof etadi. Oila atalmish muqaddas qo'rg'on ishonch, vafo-sadoqat, mehr-muhabbat, o'zaro hurmat, tenglik va adolat kabi ustunlarga suyanib barpo etilsa mustahkam va bardavom bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" 2017-yil Toshkent O'zbekiston nashriyoti
2. Mirziyoyev Sh.M "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" 2021-yil Toshkent
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash va oila muhitini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'roisida"gi PF-5325 Farmoni(02.02.2018),
4. Q-3808 O.zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (07.06.2018)
5. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 2019-yil 29-avgust
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrir 2020-yil O'zbekiston nashriyoti
7. Kaykovus "Qobusnoma" Toshkent 2018-yil Sharq nashriyoti
8. F.Akbarova, B.Axmedov va b "Hayot kitobi,yosh oilalar uchun ensiklopedik qo'llanma" Toshkent 2011-yil Sharq nashriyoti